

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
TOMONIDAN JISMONIY SHAXSLARGA AJRATILGAN
KREDITLARNING SHARTLARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISH VA
QO‘SHIMCHALAR KIRITISH (RESTRUKTURIZATSIYA QILISH)
T A R T I B I**

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartlarini qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya qilish) Tartibi” (keying o‘rinlarda – “Tartib” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, 2024-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-914-sonli Qonuni, Adliya vazirligida 2000-yil 5-apreldagi 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Nizom”, 2018-yil 2-iyuldagi 3030-son bilan ro‘yxatga olingan “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizomi, 2023-yil 29-sentabrda 3460-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizomi, Markaziy bank ko‘rsatmalari, “Turonbank” (keying o‘rinlarda – “Bank” deb yuritiladi) Ustavi, Kredit siyosati, Kredit ta‘minoti siyosati, Hisob siyosati, Foiz siyosati, Muammoli aktivlar bilan ishlash siyosati, Muammoli aktivlar bilan ishlash tartibi hamda Bank ichki tartib-qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bankning ichki qoidalari talablariga muvofiq “Turonbank” ATB aksiyadorlik tijorat banki tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartlarini qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) bo‘yicha talablar va tartib qoidalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Tartib maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushuncha va atamalar qo‘llaniladi:

Bank – “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki;

BXM/BXO – Bank xizmatlari markazlari, Bank xizmatlari ofisi;

Rahbar – “Turonbank” ATB tarkibiy bo‘linmalari va BXM/BXO rahbarlari;

Bank Boshqaruvi – Bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi;

Kreditlar monitoringni va muammoli aktivlarni boshqarish qo‘mitasi – Bosh bankda tashkil etilgan, ushbu Tartib bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish, ““Turonbank” ATBning Kreditlar monitoringi va muammoli aktivlarni boshqarish bo‘yicha qo‘mitasi Nizomi”da belgilangan vazifalarni bajaruvchi kollegial organ;

Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari – Bank xizmatlari markazlarida tashkil etilgan, ushbu Tartib bilan belgilab berilgan vakolat doirasida tegishli qarorlar qabul qilish, “Turonbank” ATB Bank xizmatlari markazlarining Kredit komissiyalari Nizomi”da belgilangan vazifalarini bajaruvchi kollegial organ;

Qarzdor – “Turonbank” ATBdan kredit joriy qarzdorligi mavjud bo‘lgan 18 yoshga to‘lgan 60 yoshdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

Birgalikda qarzdor (qo‘shimcha qarzdor) – qarzdor bilan kredit va uning foizlari bo‘yicha oylik to‘lovlarda qatnashuvchi, shuningdek kredit bo‘yicha solidar javob beruvchi 18 yoshga to‘lgan 60 yoshdan oshmagan, ish haqi va unga tenglashtirilgan, boshqa doimiy daromad manbaiga hamda doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

Sug‘urta polisi– kredit ta‘minoti sifatida kredit qaytmaslik xatarini sug‘urtalanganligi to‘g‘risida sug‘urta polisi yoki mol-mulk xataridan sug‘urta polisi;

Sug‘urta qildiruvchilar – sug‘urta shartnomasiga muvofiq, sug‘urta badalini to‘lovchi jismoniy shaxslar;

Anniutet to‘lov – qarzdor tomonidan bankka kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to‘lovlarini har oyda bir xil miqdorda to‘lab borish usuli;

Differensial to‘lov – qarzdor tomonidan bankka kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to‘lovlarini har oyda kamayib borish usuli orqali to‘lab borish;

Restrukturizatsiya – ajratilgan kredit shartnoma shartlariga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritish.

2-bob. Kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) shartlari

3. Ushbu Tartib asosida jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimchalar (restrukturizatsiya) kiritish uchun qo‘llaniladi.

4. Mazkur Tartib asosida moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan, shuningdek kredit to‘lovi sanasini boshqa kunga o‘zgartirmoqchi bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun qo‘llaniladi.

Jumladan:

- a) Qarzdor og‘ir dard bilan kasallangan taqdirda;
- b) Qarzdor tug‘ish ta‘tilini olgan taqdirda imtiyoz berilishi mumkin;
- c) Bankda kredit qarzdorligi mavjud boshqa jismoniy shaxslar.

5. Bunda asosan kredit muddatini uzaytirish va oylik to‘lov kunlarini o‘zgartirish uchun arizalar qabul qilinadi.

6. Kredit oylik to‘lov kunlarini eng kechi bilan oyning 20-sanasiga qadar o‘zgartirish kiritiladi (masalan 1-sanadan 20-sanasiga qadar), bunda oylik to‘lov kuni shu oyning ichida o‘zgarishi mumkin, biroq kredit tugash muddati sanasi o‘zgarmagan holda amalga oshiriladi. Bu amaliyot bir qarzdorning bitta krediti uchun bir marta qo‘llaniladi.

7. Mazkur Tartib asosida og‘ir dard bilan kasallangan qarzdorlar uchun 3 oygacha asosiy qarzga imtiyoz qo‘llanilishi va qolgan oylarga teng ulushlarda bo‘lib berilishi mumkin. Bunda joriy muddati o‘tgan qarzdorliklari bo‘lmasligi lozim.

8. Ushbu Tartib asosida kredit muddatini uzaytirish faqatgina homiladorlik va tug‘ish ta‘tilini olgan ayollarning amaldagi kreditlari bo‘yicha to‘lovlar muddatini o‘n oygacha uzaytirish yoki teng ulushlarda qolgan oylarga bo‘lib berish (asosiy va foiz qarzdorliklarini) mumkin. Bunda joriy muddati o‘tgan kredit qarzdorligi bo‘lmasligi lozim. Shuningdek, asosiy qarz va foiz qarzdorliklariga 10 oygacha imtiyoz qo‘llaniladi va qolgan oylarga teng ulushlarda bo‘lib beriladi.

9. Mazkur Tartib asosida kredit foiz stavkasi, kredit miqdori summasiga o‘zgartirish kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hamda O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha kredit shartlariga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

11. Qarzdor ariza bilan murojaat qilganda qarzdorning arizasi 5 bank ish kunida ko'rib chiqilishi hamda natijasi 3 bank ishi kunida qarzdorga ariza holati bo'yicha yozma yoki mobil aloqa vositasi orqali og'zaki asoslantirilgan tarzda xabar qilinishi lozim.

3-bob. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

12. Qarzdor tomonidan 4-bandda keltirib o'tilgan holatlar yuzaga kelganda Bankka ariza bilan murojaat qilinadi.

13. Talab etiladigan hujjatlar:

- a) shaxsini tasdiqlovchi hujjat (biometrik passport yoki ID kartasi);
- b) ariza;
- c) tug'ruq ta'tilini olganligi to'g'risida tasdiqlovchi hujjat;
- d) og'ir dard bilan kasallanganligi to'g'risida ma'lumotnoma yoki tasdiqlovchi hujjat;
- e) oylik tushadigan kartasining pul aylanmasi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- f) agar qo'shimcha qarzdor yoki kafil mavjud bo'lsa qo'shimcha qarzdor va kafilning rozilik xati;
- g) agar mijoz rasmiy daromad manbaiga ega bo'lmasa yoki o'zini-o'zi band qilgan bo'lsa unda mijoz bilan bank xodimi og'zaki suhbat qiladi va mazkur suhbatda mijozga har oy keladigan daromad vaqti o'rganilib yozma xulosa beriladi.

14. Qarzdor bankka ariza bilan murojaat qilgandan so'ng mijoz arizasiga asosan quyidagi tartibda amaliyotlar bajariladi:

a) Qarzdor og'ir dard bilan kasallanganligi sababli kredit grafigiga 3 oygacha imtiyoz berilishini yoki qarzdor oylik to'lov kunini boshqa sanasiga ko'chirishni so'rab murojaat qilganda dastlab qarzdorning arizasi BXMning mas'ul xodimi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda xulosa rasmiylashtiriladi. Mas'ul xodim arizani o'rganib chiqib qaror qabul qilish uchun ariza va xulosani BXM Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritadi. BXM Kredit komissiyasi qarzdorning arizasida ko'rsatilgan sababni hamda mas'ul xodimning xulosasini o'rganib chiqqan holda qaror qabul qiladi. Ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng mas'ul xodim tomonidan kredit shartnomasi va unga ilova qilingan kredit qaytarish grafigiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi va mijozga tasdiqlatadi. Mazkur tasdiqlangan hujjatlar, mijoz arizasi, xulosasi, BXM Kredit komissiyasi qarorlari Colvir dasturining fayl yuklash (dose) qismiga yuklab kredit grafigiga (qarzdor arizasida ko'rsatilgan sanaga) o'zgartirish kiritib sanksiyaga chiqaradi.

b) Qarzdor homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollar amaldagi kreditlari bo'yicha to'lovlar muddatini o'n oygacha uzaytirishni yoki teng ulushlarda qolgan oylarga bo'lib berishni (asosiy va foiz qarzdorliklarini) so'rab murojaat qilganda dastlab qarzdorning arizasi BXMning mas'ul xodimi tomonidan ko'rib chiqiladi. Mas'ul xodim arizani o'rganib chiqib qaror qabul qilish uchun BXM Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritadi. BXM Kredit komissiyasi qarzdorning arizasida ko'rsatilgan sababni o'rganib chiqqan holda qaror qabul qiladi. Ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng tegishli tartibda mas'ul xodim tomonidan kredit shartnomasiga (qo'shimcha qarzdor mavjud bo'lsa qo'shimcha qarzdorning rozilik xati), kredit ta'minoti hujjatlariga (agar

kafillik shartnomasi rasmiylashtirilgan bo'lsa kafil shaxsning rozilik xati, sug'urta shartnomasi hamda garov shartnomasiga) tegishli o'zgartirishlar kiritiladi va qarzdor (qo'shimcha qarzdor va kafil) tomonidan qayta imzolanadi. Ushbu rasmiylashtirilgan hujjatlar Colvir dasturining fayl yuklash (dose) qismiga yuklab kredit muddati va kredit qaytarish grafigiga o'zgartirish kiritadi hamda sanksiyaga chiqaradi.

15. Barcha o'zgartirishlar yakuniga yetkazilgandan so'ng yangi to'lov grafigi mijozga taqdim qilinadi.

16. Qarzdor tomonidan yangi to'lov grafigi asosida har oyda belgilangan tartibda oylik to'lovlar amalga oshirib boriladi.

17. Yuqorida keltirib o'tilgan hujjatlarni rasmiylashtirishda (sug'urta, notarius hamda garov bilan bog'liq xarajatlar) yuzaga keladigan xarajatlar qarzdir tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Javobgarlik

18. Bosh bankning tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va mas'ul xodimlari, Bank xizmatlari markazlari rahbarlari, kredit amaliyotlari va monitoring mas'ul xodimlari mazkur Tartib talablariga qat'iy rioya qilinishi hamda xizmat ko'rsatish yakuniy nazoratni to'g'ri amalga oshirishga mas'ul hisoblanadilar.

19. Bank tizimida ushbu Tartib qoidalariga muvofiq ishlash jarayonlarida korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimi tartib qoidalarini, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablarini buzgan rahbar va mas'ul xodimlar lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

20. Bank tizimida ushbu Tartib bo'yicha o'petasiyalar Adliya vazirligida 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarni tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

21. Bank tizimida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartlarini qayta ko'rib chiqish va qo'shimchalar kiritish jarayonlarida ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan rahbar va mas'ul xodimlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, Bank ichki qoidalarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

22. Ushbu Tartib talablariga rioya qilinishiga bank xizmatlari markazlari (BXM)ning Chakana biznes bo'limlari, kredit amaliyotlari va monitoring mas'ul xodimlari, tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbar va mas'ul xodimlari javobgar hisoblanadi.

23. Kredit ta'minoti sifatida garovga olingan mulk mas'ul xodimlar tomonidan asossiz garovdan chiqarilganda ushbu holatga sababchi bo'lganlar amaldagi qonunchilikka asosan shaxsan javobgar bo'ladi.

24. Mazkur Tartib asosida ishtirok etadigan barcha xodimlar O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni, "“Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizom, "“Turonbank” ATBning manfaatlar to'qnashuviga oid Siyosati"da nazarda tutilgan talablar, tartib-qoidalarga rioya qilishlari talab etiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

25. Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartlarini qayta ko‘rib chiqish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya qilish) Tartibi” Bank Boshqaruvi tomondan tasdiqlanib, ro‘yxatga olinganidan keyingi ish kunidan kuchga kiradi.

26. Ushbu Tartibga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish Bank Boshqaruvi qarori asosida amalga oshiriladi.

27. Mazkur Tartibga Chakana biznes, Monitoring va nazorat, Buxgalteriya hisobi departamentlari, Bank xizmatlari markazlari (BXM)ning Chakana biznes bo‘limlari, kredit amaliyotlari va monitoring mas‘ul xodimlari, tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbar va mas‘ul xodimlarining rioya etishlari majburiy hisoblanadi.

28. Ushbu Tartibda ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bankning ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.